KONSTITUTSIYA-YOSHLARNI IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Ruzibaev Mansurbek Sabirovich
FDU harbiy ta`lim fakulteti o`qituvchisi Zahiradagi Podpolkovnik
Irsaliev Zoir Mahmudqulovich
O`zbekiston Respublikasi jamoat xafsizligi universiteti magistri
Odilov Maxmudbek Mamirjon o`g`li
Farg`ona davlat universiteti Harbiy ta`lim fakulteti 2 bosqich kursanti
Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich
Farg`ona davlat universiteti harbiy ta`lim fakulteti 2-bosqich kursanti

Annotatsiya: *ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi haqida va Konstitutsiyasiga 2017-yilgacha, 2022-yilda bo'lgan va bo'layotgan o'zgarish, qo'shimchalar bor.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, moddalar, qonun, faoliyat va h.k.*

Konstitutsiya haqida. O'zbekiston Respublikasi o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respiblikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992- yil 8- dekabrda qabul qilingan.

Quyidagi o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga 2002-yildan 2017-yilgacha kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalar:

2002- yil 27- yanvarda o'tkazilgan umumxalq refendumi natijalariga ko'ra hamda uning asosida O'zbekiston Respublikasining 2003- yil 24- aprelda qabul qilingan Qonuninga Muvofiq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi XVII, XIX, XX, XXIII boblariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2007- yil 11- aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2008- yil 25- dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi qismiga o'zgartirish kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2011- yil 12- dekabrda qabul qilingan Qoninu bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 90-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2014- yil 16- aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 32, 78, 93, 98, 103 va 107 moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2017- yil 31- mayda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 80, 93, 108 va 109-moddalariga o'zgartirishlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2017- yil 29- avgustda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 99 va 102 moddalariga o'zgartirishlar kiritilgan.

Konstitutsiya - O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining haq-huquqlari, majburiyatlari va erkinliklari bayon etilgan. Bu 2022-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'pdan ko'p o'zgartirishlar kiritdilar, ta'kidlab o'tganlaridek bu o'zgarishlarning bari biz yoshlar uchundir! Kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini biz yoshlarning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu o'rinda fuqarolik jamiyati tushunchasi haqida to'xtab o'tish joiz. Fuqarolik jamiyatini Yuksak fazilatlariga ega bo'lgan insonlar jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va instutlar, mafkura va fikrlarning xilma xilligi ta'minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolarning o'ziga-o'zi boshqarish o'rganlarining mavq'ei yuksak bo'ladi. Konstitutsiyamizning 32-moddasiga ham fuqarolarning davlat organlarining faoliyatlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. Shunga muvofiq, 2018-yilning 12-aprel kuni 21 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni qabul qilinganini ham bu masalaning huquqiy asosi hisoblanadi. Qonunga ko'ra, fuqarolik jamiyatining to'rtta asosiy instutlari jamoatchilik nazorati hisoblanadi. Ularga O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat, notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari kiradi. Inson ijtimoiy faolligining asosida uning huquqiy kafolati, erkinligi, jamiyatda demokratik mezonlarining mavjudligi yotadi. Insonlarning birgalikda yashashining kafolati bu jamiyatda, butun dunyoda huquqining, huquqiy ma'daniyatni mavjudligi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 24-moddasida yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi erkinligi 25-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga, 36-moddasida har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli ekanligi 42-moddasida har kim ilmiy-texnikaviy ijod erkinligini, ma'daniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanganligi belgilab berilgan. Har qanday inson faoliyati bu uning ongi, fikri, tafakkuri va dunyoqarashining real hayotiy faolliyatiga aylanishi samarasidir.

Mamlakatimiz mustaqqilligining dastlabki yillaridan kelajak avlod haqida qayg'urilgan, ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya olish vatanparvar bo'lishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va saloxiyatini namoyon etish uchun barcha sharoit yaratilmoqda.

Zero, intellectual saloxiyatini yuqori, dunyo qarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunlari, yoshlar ishlari sohasidagi oid Prezident farmonlari, qarorlari hamda O'zbekiston yoshlari 2030-

konsteptsiyasi yoshlarga zamonaviy standart asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim axamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim tizimidagi innovatsiya va kreativ yondashuvlar asosida Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek nomlari bilan ataladigan, aniq fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar tashkil etadi. Jahonga ma'lum bo'lib bormoqdaki, hozir O'zbekiston Respublikasida barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida Harakatlar strategiyasi, bugungi kunda esa Taraqiyyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar yotadi hamda "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" degan ezgu g'oya asosida amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasini Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan ham bilib olish mumkin.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, yangi turdagi ta'lim maskanlari ochildi, xususan, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo'lga qo'yildi. Birgina 2020 yilni esga tushuradigan bo'lsak, O'zbekistonda matematika fani bo'yicha 28 ta, IT sohasida informatika va axborot-komunikatsiya texnologiyalari bo'yicha 14 ta ana shunday maktablar tashkil etildi.

Jahon tajribasi o'rganilib, yangi tartib-qoidalar, zamonaviy ta'lim usullari joriy etilmoqda. Jumladan, xususiy maktab ochish uchun litsenziya olish tartibi soddalashtiriladi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini, ya'ni jamiyat hayotida faol bo'lishi kelajakka ishonch tuyg'usi asosida shakllandi. Qachonki inson jamiyat barqarorligiga ishonsa, jamiyat qonunlarining ustuvor mavqe'ini anglasa, kelajakka qat'iy ishonsagina uning hatti-harakati muayyan ma'no kasb etadi. Yoshlarda ijtimoiy faollik shakllanishida azaliy, umummiliy, diniy va axloqiy qadriyatlarining ham munosib o'rni bor.

Zotan xalqimizda jamiyat hayotiy hodisalarini anglashda ma'naviy-ahloqiy va diniy qadriyatlar yetakchi o'rinni egallab kelgan. Ijtimoiy faollikning shakllanishida eng muhim huquqiy asos va omil bu O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Ushbu fundamental hujjat demokratik jamiyatimizning rivojlanishi, fuqarolik jamiyatini shakllanishi va takomillashining qonuniy kafolatidir. Biz demokratik huquqiy davlatda yashayapmiz, kelajakda uning yuqori bosqichi bo'lgan fuqarolik jamiyatini qaror toptirishni maqsad qilib qo'yganmiz. Bu jamiyat fuqarolarning erkin va demokratik faolliyatlarining keng namoyon bo'lishini taqazo etadi. Kelajagimiz bo'lgan yoshlar o'qishda, sportda, ilmiy-texnik ijodda, mehnat ko'nikmalarini hosil qilishda, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishining ahamiyati ortib bormoqda. Buning uchun birinchidan, oilada sog'lom muhitining bo'lishi; ikkinchidan, ta'lim muassasalaridan sifatli o'qitish; o'quvchining fikrini eshitishni va erkin munozarani yo'lga qo'yish; uchinchidan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qiluvchi ijtimoiy muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda ijtimoiy faollikning shakllanishi nimalarda, qanday ijtimoiy foydali faoliyatda amalga oshadi?

Bular esa quyidagi omillarda namoyon bo'ladi:

-inson jamiyat mahsuli va a'zosi sifatida jamiyat yaratgan ne'matlarini qadrlashi va o'zi ham yaratishni o'rganishi;

-mehnat qilish uchun yaratilgan shart sharotini qadrlay olish;

-jamiyat bergan bilim, tajriba va tafakkurni anglashi;

-jamiyat a'zolari Vataning muqaddas tuprog'i, havosi, suvi va oddiy boyliklaridan oqilona foydalanishlari va e'zozlashlari;

-jamiyat ishini o'z ishi kabi bilish, qadrlash va tashabbus ko'rsatishi;

-o'zining va avlodlarining farovon turmushini o'ylab, unga astoydil xizmat qilish.

Bunday oliyjanib sifatlarga ega bo'lish yoshlardan bilim, yuksak e'tiqod va shijoatni talab etsa, jamiyatdan esa demokratik tamoyillarining barqarorligi, huquqiy asoslarining mustahkamligi va jamiyat a'zolarini fidoyiligi kabi omillarning rivojlantirishini talab etadi.

Jamiyatda xalq, millat, aholi va oila tinchligi eng muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati va asosi ham ana shu xalq, millat va jamiyat tinchligi, farovonligi va barqarorligiga qaratilganligi bilan o'lchanadi. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan keng qo'lamli islohotlarning bosh maqsadi inson, xalq, millat va jamiyat farovonligiga qaratilganligi bilan muhim hisoblanadi. Tub islohotlar amalga oshirilayotgan keying besh yilda mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z kundalik hayotida teran xis etayotgan muhim o'zgarish va yangilanishlar davri bo'ladi. Jamiyatning rivojlanishiga qarab Konstitutsiya ham o'zgarib boradi. O'zbekistonda o'tgan davr mobaynida "2017-2021" yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishining besh ustuvor yo'nalishlariga asoslangan "harakatlar strategiyasi" asosida olib borilgan islohotlar va ularning amaliy natijalari davlatimiz rahbari ta'kidlagan "inson-jamiyat-davlat" tamoyilini amalda ifodasini ko'rsatib berdi.

Olib borilgan islohotlar natijasida inson huquqlarini barqaror ta'minlash, majburiy mehnatni cheklash, inson qadr-qimmatini ulug'lash islohotlarning bosh mezoniga aylanadi. Amalda ushbu tamoyilni bosh qonunimizda aks ettirish bugungi islohotlarning amaliy ifodasi sifatida qonuniy mustahkamlanishiga xizmat qilgan boladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bugungi kunda ellikdan ortiq inson huquqlari aks ettirilgan bo'lib, aksaryat inson huquqlarini qamrab olgan. Lekin jahon olimlari tadqiqotlarida inson huqularining yuzdan ortig'I ma'lum ekanligi ta'kidlangan. Bugungi olib borilgan islohotlar jamiyatimizda inson huquqlarini kengaytirish va ularga amal qilishining amaliy ifodasini namoyon etmoqda. Bu muhim islohot xususida davlatimiz rahbari "Konstitutsiyasi yangilashdek g'oyat muhim, strategic vazifani hal etishda biz yetti marta emas, yetmush marta o'ylab, xalqimiz bilan har tomonlama maslaxatlashgan holda, yurtimiz va jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, aniq qaror qabul qilishimiz zarur" deb ta'kidlagan edi. Mana shunday muhim islohot buyuk kelajak qurishimizda, mamlakatimizda Uchinchi penessans poydevorini yaratishda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O'zbekiston xalqi huquqiy davlat barpo etishni ko'zlagani qayd qilingan. Huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi – bu qonun ustuvorligi hisoblanadi. Qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog'liq prinsipdir. Chunki xalq hokimiyati deganda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita va bilvosita ishtirok etish huquqi tushuniladi. Shu ma'noda xalq idorasining ifodasi bo'lgan, fuqarolarning parlamentga saylab qo'ygan vakillari orqali yoki o'zlari tomonidan bevosita refendum orqali qabul qilingan qonunlar xalq hokimiyatchiligining natiasi, majoziy qilib aytganda, mevasi hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquqi va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir. Xalqaro hujjatlarda qonun ustuvoligining asosiy elementlari sifatida qonun ijodkorligini shaffof, hisobdorlik va demokratik jarayonini qamrab olgan qonuniylikka asoslanishi; huquqiy aniqliq; o'zboshimchalikning taqiqlanganligi; mustaqil va odil sudlovning ochiqligi; shuningdek ma'muriy hujjatlar ustidan sud nazoratining o'rnatilganligi; inson huquqlarini hurmat qilish va kamsitmaslik hamda qonun oldida tenglik hisoblanadi. Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashning zarur normativ-huquqiy va tashkiliy institutsional asoslari shakllantirilgan. Qonunchiligimizda huquqiy ekspertiza, qonun hujatlarining ta'sirini baholashtizimi, monitoring, idoraviy hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish kabi huquqiy vositalar ham belgilangan bo'lib, bular ham qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim elementlarini tashkil etadi. Ko'plab qonunlarda qonun ustuvorligi, qonuniylikni ta'minlash faoliyatining asosiy prinsiplari va vazifalari sifatida ko'rsatb o'tilgan.

Bu 2022-yilda Konstitutsiyaning 64 ta moddasiga 200 dan ortiq o'zgarishlar, 6 ta yangi modda bilan 16 ta norma kiritilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kitobi.
2) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi.
3) O'zbekiston 24 kanalidagi umumxalq muhokamasi.